

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**Karimov Nodirbek Shuhrat o‘g‘li (TDSHU Koreyashunoslik oliy maktabi mustaqil tadqiqotchisi;  
e-mail: [nodirbekkarimov1995@gmail.com](mailto:nodirbekkarimov1995@gmail.com))**

### MUALLIF BIOGRAFIYASINING BADIY TASVIRI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan adib Li Munyol qalamiga mansub asarlarda muallif biografiyasining badiiy tasviri masalalari ko‘rib chiqilgan. Muallifning “Qaddi buzik qahramonimiz” hikoyasida bolalik, “Yosh yigit portreti” hikoyasida o‘smirlilik yillari gavdalananadi. Kichik janrga katta muammo – davr haqiqatini sig‘dira olgan adib “Qahramonlar asri” qissasida hayotiy iztiroblari sirini ochadi. Davr, muhit va muammo uyg‘unlikda aks etgan qissa va hikoyalar adibning mazkur davrga bergen bahosidir.

**Kalit so‘zlar:** hikoya, qissa, qahramon, muhit, bolalik, o‘smirlilik, portret, xiyonat, avtobiografiya, badiiy vosita.

**Каримов Нодирбек Шухратович (Высшая школа Корееведения, свободный соисследатель;  
e-mail: [nodirbekkarimov1995@gmail.com](mailto:nodirbekkarimov1995@gmail.com))**

### ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ БИОГРАФИИ АВТОРА

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются художественные аспекты биографии Ли Мун Еля, в созданных им произведениях второй половины XX века. В повести «Наши сломленный герой» автор делится воспоминаниями о своем детстве, тогда как в «Портрете юноши» он описывает годы юношества. В произведении «Век героев» писатель, стойко преодолевший жизненные невзгоды, открывает перед читателем свою жизнь. Литературное наследие Ли Мун Еля отражает дух времени, окружающую действительность и проблемы, характерные для эпохи, в которой жил и творил автор.

**Ключевые слова:** рассказ, повесть, герой, атмосфера, детство, юношество, портрет, предательство, автобиография, художественный прием.

**Karimov Nodirbek (Graduate School of Korean Studies, independent researcher;  
e-mail: [nodirbekkarimov1995@gmail.com](mailto:nodirbekkarimov1995@gmail.com))**

### ARTISTIC DESCRIPTION OF THE AUTHOR'S BIOGRAPHY

**Annotation.** This article deals with the issues of artistic description of the author's biography in the works of writer Lee Mun Yeol written in the second half of the XX century. In the story “Our twisted hero” the writer tells about his childhood, and in the story “Portrait of a young man” – about his youth. In the story “The age of heroes” the writer, who managed to resist the reality of that time, will reveal his entire life. In novels and stories, the writer reflects the era, environment and problems of that period.

**Key words:** story, novel, hero, atmosphere, childhood, juvenility, portrait, betrayal, autobiography, artistic tool.

**Kirish (Introduction).** XX asr ikkinchi yarmi tarixi va taraqqiyoti, o‘lmas qadriyatları, muhit va zamon masalalari koreys adibi Li Munyol hayotida yorqin ko‘zga tashlanadi. Adib hayotining badiiy ifodasi bizga millat qiyofasini tasavvur qilishga imkon beradi. Yozuvchining bolaligi fuqarolar urushi, o‘smirlilik yillari mamlakatdagi xaos (bo‘shliq) davriga to‘g‘ri keldi. Fuqarolar urushi davrida mamlakat aholisining ikki xil mafkura ostida bo‘linishi hamda otasining Shimoliy Koreya mafkurasi qarashlari ta’siriga tushib, qochib ketganligi oqibatida oila bir umr davlat milliy xavfsizlik xodimlari nazorati ostiga olindi. Bu, albatta, yosh Li Munyolga ruhiy zarba bo‘ldi. Oiladagi moddiy yetishmovchik ham ma’nana xastalik bo‘lajak adibning maktabda tahsil olishiga to‘sinqilik qildi. Natijada u bir necha marotaba tahsil olayotgan maktabini almashtirishga majbur bo‘ldi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** “Inson o‘z bolalik va o‘smirligini umri davomida unutolmasligi oddiy haqiqat. Bu yoshdagи eng yorqin xotiralarni bir umrga eslab qolish uchun kamida ikki jihat zarur bo‘ladi: birinchisi – xotira muallifi noyob qobiliyat egasi bo‘lib, bolalikdanoq har bir voqeа detalini aniq-tiniq eslay olishi hamda bularni noyob durdona yanglig‘ qalbida saqlay bilishi, ikkinchisi esa muallifni yillar davomida bezovta qilib kelgan ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy hayotidagi ruhiy iztiroblari, qiyinchiliklarining unutilmas saboqlari [1;232-b.].

Muallifning 1987-yili yozilgan “Qaddi buzik qahramonimiz” hikoyasi buyuk adabiyotshunos, yozuvchi Li San (koreys modernizmining yorqin namoyandalaridan biri, qisqa umri davomida sermazmun ijod qilgan. Adabiyotshunos olimlar e’tirofiga ko‘ra, rus yozuvchisi Lermontovni yodga soladi) nomidagi adabiy mukofotni qo‘lga kiritdi. Hikoya ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida taraqqiyot bosqichiga kirgan ko-

reys nasri namunasi hisoblanadi. “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasi 1987-yili Janubiy Koreyada demokratiya uchun harakatlar ayni avj nuqtasiga chiqqan paytda nashr qilindi.

Bolalik yillari mashaqqatlarini “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasi zamirida bergen yozuvchi, o’smirlik, yigitlik hamda talabalik yillarida “xiyonatkor ota” sabab boshidan o’tkazgan iztiroblari, nohaqliliklarini “Yosh yigit portreti” hikoyasida tasvirladi. Bu xuddi avvalgi hikoyaning davomiga o’xshash taassurot uyg’otadi, avval bolalik, keyin o’smirlik yillarida voqelik va mafkurani idrok etishi, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlari, dunyoni anglash, o’zi va oilasi duch kelgan hayotiy to’siqlarning ildizini izlashi kabi masalalar bosqichma-bosqich ikkita hikoyaga kiritiladi.

Ijtimoiy ziddiyat, fikrlar qarama-qarshiligi, tarixiy haqiqat yozuvchining yangi asari uchun asosiy manba bo‘ldi. Adibning tarixiy jarayonlarni o’z ichiga olgan, uning davrga bergen bahosi hamda tafakkur olamini aks ettiruvchi “Qahramonlar asri” qissasida Shimoliy Koreyaga qochib ketgan otaning hayoti obrazli tarzda tasvirlanadi. Muallif tasavvurida kommunistik mafkura asosiga qurilgan mamlakatdagi ota hayoti Chxve Inxunning “Maydon” romanidagi bosh qahramon hayotiga qiyoslanadi. Koreya yapon anneksiyasidan ozod qilingan kundan boshlab Shimoliy Koreya hududiga ko’chib o’tgan, yangi mafkuraga asoslangan davlat uchun qon kechgan ota olamdan o’tadi. Otaning yolg’iz yodgori – o’g’li kommunistik ruhda tarbiya topadi, Janubiy Koreya haqida salbiy fikrlaydi. Shimoliy Koreya jamiyatini eng gumanitar tuzum, deb bilgan o’g’ilning bir kuni to’satdan so’roqqa tortilishi, aybsiz aybdorga aylanishi uning butun hayotiga nuqta qo‘yadi.

Li Munyolning “Uyga qayta olmaysan” (1980) to’plami 16 ta hikoyadan iborat bo‘lib, hikoyalarda qo‘ylgan asosiy masala birin-ketin bir-biriga bog‘lanib ketadi. Natijada 16 ta hikoya yaxlit bir asar kabi tasavvur uyg’otadi. Hikoyalarda adib o’zi tug’ilib o’sgan shahar hayotining har bir aspektini alohida yoritadi, bir hikoyadan ikkinchi hikoyaga o’tish jarayonida ma’naviy bo’shliq chuqurlashib boradi, so’nggi hikoyada esa u izsiz yo‘qoladi. Ma’naviy bo’shliq deganda adib qadrsizlanib borayotgan inson, uning hayoti, sha’nini nazarda tutadi, hamisha hadiksirab, qo’rquvda yashashiga urg’u beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasida Koreya tarixida o’chmas iz qoldirgan turli tashqi tazyiq hamda ichki to’qnashuvlar girdobidagi inson taqdiri, adibning oilasi boshiga tushgan kulfatlar maktab hayoti orqali bayon qilinadi. 50 yil davomida mustabid zulmi ostida yashagan hamda hayotda qochib bo‘lmash zo’ravonlik va tahdid muammosiga duch kelgan xalq ahvolini obyektiv tasvirlash hikoyaning asosiy g’oyasi hisoblanadi. Zo’ravonlik mavzusi Li Munyolning qator hikoyalarida uchraydi, “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasida esa bu masala oila, jamiyat va maktabda sodir bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Yozuvchi xotirasida mustahkam o’rnashib qolgan voqealar qaydlar tarzida emas, balki badiiy asar tarzida bayon qilinadi. Maktab hayoti bolalik dunyoqarash orqali samimiylashtirish, maktab o’qituvchilarining xatti-harakati real voqelikka asoslanadi. Bu o’z o’rnida rus xalqi hayoti, oddiy qashshoq hayotga mahkum mujiklar, mol-dunyo uchun kurashlarning aka-uka va ota-bolalar orasidagi munosabatni buzishini ochiq-oqdin ko’rsatgan M.Gorkiuning “Bolalik” qissasini yodga soladi. Rus adibidan farqli o’laroq, koreys yozuvchisi bolalik va o’smirlik yillarini katta hajmli bir qissa ichiga emas, bir-birini mantiqan to’ldiruvchi hikoyalar zamiriga joylashtiradi.

Koreya urushi, 1960-yil aprel oyida bo‘lib o’tgan namoyishlar, 1961-yil may oyidagi to’ntarishlar oqibatida mafkuraviy bo‘linishning xalq ongiga ta’siri muammosi mamlakatda kambag‘allik, ochlik va o’limning ko‘payishida yanada chuqurlashdi. Mafkuraviy bo‘linish fojiasi hamda uning mudhish oqibatlarini boshidan kechirgan mohir nasrnavis Li Munyol o’zining “Qaddi bukik qahramonimiz” hikoyasida madaniy qatlama turfa fikrlilikning paydo bo‘lishini mohirona ko’rsata oldi [2;14-b].

Adibning mazkur hikoyasida uni yillar davomida bezovta qilib kelgan ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy hayotidagi ruhiy iztiroblari, qiyinchiliklari tarixiy saboq kabi yangraydi. Hikoyada Li Munyol xotiralarida qolgan qaydlar – hayotning achchiq haqiqatlari real bayon qilinadi. 1987-yil mamlakatda harbiy boshqaruvga qarshi xalq kurashi bilan tarixda o’chmas iz qoldirdi, xalq orzulari ushaldi: u istagan islohotlar o’tkazildi: “O’sha yili, mart oylarining o’rtalarida, Liberal partiya tomonidan ta’sis etilgan hukumat, hokimiyat tepasida so’nggi nafasini olmoqda edi” [3;2-39 p.].

Muallif 1987-yil iyun voqealari boshlanishidan oldin hokimiyat yuritayotgan siyosatning umri tugab borayotganini olis qishloq maktab hayoti tasvirida ko’rsatdi. Bir qarashda, hikoya – maktab o’quvchilar va o’qituvchilar, o’quvchilarning o’zaro munosabatlari haqidagi oddiy tarixiy voqeaga o’xshaydi. Aslida, bu voqealari zamiriga gohida inson aqli yetmaydigan, aql bovar qilmaydigan fikr joylashtirilgan. Hikoyada fuqarolar urushidan keyingi xaos davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, mafkuraviy bo‘linish sababli otasining gunohi uchun aybdor o’g’il masalalari tasvirlanadi. Hikoyada siyosiy tuzum voqealari badiiy jihatdan yuk-

sak ifodalangan. Davrdagi jiddiy muammolar maktab o‘quvchilari ko‘zi orqali beriladi. Shu o‘rinda olim Q.Yo‘ldoshning: “Alovida bir odam va uning hayot yo‘liga qiziqishning ortgani millat ahlining shaxslashayotgani va ularda alovida odam taqdirlar chinakam qiziqish uyg‘onayotganidan belgidir. Shuningdek, biron adabiyotda biografik yo‘nalishdagi bitiklarning ko‘payishi o‘sha yerda odam shaxsiga e’tibor orta boshlanidan dalolatdir”, degan fikrlari o‘z tasdig‘ini topadi (4;10-b.).

Xan Pyon Te – “hayotda ko‘pni ko‘rmagan” quyi maktab o‘quvchisi haqiqat uchun kurashadi, aynan bosh qahramonning bu xarakteri muallif uchun muhimlik kasb etadi. Bosh qahramonning bolalarcha samimiy va haqiqatni tiklash uchun sabotli ishonchi kitobxonni befarq qoldirmaydi. U yangi matabda, yangi sinfdoshlar orasida o‘z o‘rnini topa olmasa-da, bir vaqtning o‘zida matabda o‘rnatilgan tartib hamda loqaydlikka toqat qila olmaydi: “...men faxrlanib qatnab yurgan Seuldagi eng zo‘r matabni tashlab, provinsiyaning kichik shaharchasida joylashgan bechorahol maktabga o‘tishimga to‘g‘ri keldi. Davlat xizmatida ishlaydigan otam ishxonasida fitnalarga aralashib qolgani bois oilamiz u yerga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi” [3;2–39 p.].

Hikoyadan keltirilgan parchada muallifning bolalik xotiralar bo‘y ko‘rsatadi: fuqarolar urushi davrida otasi siyosiy fitnalar sabab yashash joyini janubdan shimolga ko‘chirishga majbur bo‘lgan edi. Otasi shimolda bo‘lgan muallif juda ham ko‘p to‘siqlardan o‘tishga, hatto atrofdagilarning nafratli munosabatini yengishga, og‘ir turmush tarzini kechirishga mahkum edi. Shuning uchun ham Li Munyol badiiy niyatini o‘z ixtiyorisiz yangi, notanish hamda ko‘ngilsiz o‘rtaga tushib qolgan o‘n ikki yoshli bola obrazida ko‘rsata oldi, uning hissiyotlarini ishonchli tasvirladi.

Umuman olganda, jamiyatdagi turli to‘qnashuvlar, fuqarolar urushidan keyingi tartibsizliklar ayni o‘quv dargohlari, ta’lim tizimi bilan bog‘liq vaziyatlarda tasvirlanishi Li Munyolning zamondoshi Chon Sang Guk ijodida ham uchraydi. Adib o‘zining “Butning ko‘zyoshi” hikoyasida kollej hayoti misolida 2-bosqich o‘quvchilari obrazida o‘smir ruhiyatidagi zo‘riqishlarni tasvirlaydi. Guruhning yangi rahbari iqtidorli o‘quvchi ta’sirida kursdan kursga qoldirib keligan zo‘ravon o‘quvchini tarbiyalashga kirishadi. Aslida, hikoyadagi zo‘ravon bola obrazida jamiyatdagи loqaydlik, ota-onaning nochor ahvoli, matablarda o‘qishning qiyinligi, moddiy yetishmovchilik kabi masalalar bo‘rtib ko‘zga tashlanadi.

Hayotiy qiyinchiliklar hamda to‘siqlar Li Munyolning bilim olishiga monelik qila olmadı. O‘z davri va hozirgi kunda oliy muassasalar reytingida yuqori ko‘rsatkichga ega Seul universiteti talabasi sharafiga erishgan adib 1970-yili universitetni tamomlasa-da, afsus, o‘tgan yillar soyasi, ya’ni, otasining boshqa mafkura ta’sirida Shimoliy Koreyaga qochib ketishi sabablarga ko‘ra, unga universitetni tamomlaganlik haqida hujjat – diplom berilmadi. Bolalik yillari mashaqqatlarini “Qaddi buzik qahramonimiz” hikoyasi zamirida bergen yozuvchi, o‘smirlik, yigitlik hamda talabalik yillarida “xiyonatkor ota” sabab boshidan o‘tkazgan iztiroblari, nohaqliklarini “Yosh yigit portreti” hikoyasida tasvirladi. Adib o‘zining bir shaxs sifatida shakllanish jarayonida aybsiz aybdorlik sabablarini aniqlashga, o‘zini doimiy ta’qib qilgan qo‘rquv va noma‘lum vaziyatlarni idrok etishga intilib yashadi. Bu haqida adibning o‘zi shunday yozadi: “Men ta’-qib ostida yashashga majbur bo‘ldim. Matablarni tez-tez o‘zgartirdim, mashaqqatli hayot va qashshoqlik meni o‘zligimni anglashga turtki berdi...o‘qishni tashlab ketmadim, sarson-sargardon bo‘lsam-da, imtihonlarga tayyorgarchilik ko‘rdim..., xullas, bu mashaqqatlar meni zohidlik yo‘liga krita olmadi” [8;26.1p.].

Har ikki hikoya mazmunida muallifning shaxs sifatida shakllanib, yetuklik pallasiga kirib kelishi anglashiladi. Bolalik haqidagi xotiralar biroz samimiy yoritilgan bo‘lsa, o‘smirlik davriga kelib, ichki tug‘-yon tashqi dunyo – jamiyatdagи voqe-hodisalarga, insoniy munosabatlarning davr taqozosiga ko‘ra, nosamimiyligiga baho bera boshladi. Kamolotga yetgan muallif obrazni uchun bu yashashga bo‘lgan ishtiyoqning kuchayishi, ichki ziddiyatlar bilan kurashish, muammolarni hal qilishdagi to‘g‘ri tanlov edi.

Li Munyol otasi haqida yaratgan qissasida o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni to‘kilgan tuprog‘idan voz kechgan, muqaddas oilasini asrab qolmagan, ayoli va farzandlarini himoya qila olmagan, xiyonatkor ota-ning qismati, albatta, fojiali yakunlanishiga, tabiiy hol kabi qaraydi. Ammo, shu bilan bir vaqtida, u o‘z xotiralarida shunday yozadi: “Hukmron tabaqa ta’siri ostidagi otamning tanlovi tarixiy zaruriyat edi, xolos” [8;26.1 p.].

Li Munyol ijodida o‘ziga xos taraqqiyot va izlanishlar bosqichini bosib o‘tgan, koreys adiblari uchun an‘anaga aylangan hikoya janri o‘zining butun qirralari bilan namoyon bo‘ldi, hikoyalari unga mashhurlik olib keldi, uning qalamiga mansub barcha hikoyalar nafaqat tanqidchilar, balki keng kitobxonlar auditoriyasi tomonidan ham iliq kutib olindi. Li Munyol ijodi milliy adabiyot taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Li Munyol asarlarining muvaffaqiyati uning ijodkor sifatidagi o‘ziga xos uslubi, betakror badiiy mahoratidadir. Zero, “Yozuvchi o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy mavqeyida mustahkam tursa, tasvirla-

nayotgan voqea-hodisalarga o‘z xalqining ilg‘or farzandi nuqtai nazaridan qarasa va kelajakka nazar sola bilsa, uning asarida ifodalangan milliy tuyg‘ular umumbashariylik tusini oladi. Adabiyotning bunday xislatlarini esa kitobxon, birinchi galda, qahramon siyosida, uning faoliyatida, xatti-harakatlarida, qiliq-odatlarida, axloq va odobida ko‘radi. Badiiy adabiyotdagi milliylik faqat shakl hodisasigina emas, ayni chog‘-da, mazmun masalasi hamdir. Chunki badiiy asarda millatning iqtisodiy-siyosiy turmushi, xalq dunyoqarashining ichki murakkab mazmuni ham aks etadi” [7;108–131-b.].

Yozuvchi ijodining gullagan davri 1980-yillarga to‘g‘ri keladi. 1980-yillar adabiyot olamida, nasriy asarlar mualliflari orasida Li Munyol bilan tenglasha oladigan ijod ahli barmoq bilan sanarli bo‘ldi. Adib o‘zi yaratgan har bir asarga bugungi kun nuqtai nazaridan yondashishi hamda prizmasidan o‘tgan hayotiy voqealarni badiiy voqealikka aylantira olish mahorati unga nafaqat ijodiy mashhurlik, balki tijorat ishlarida moliyaviy samaradorlikka erishish kalitiga aylandi.

Bu davrda yaratilgan hikoyalarda ijtimoiy tengsizlik, jamiyat va inson, tabiat va inson, fuqarolar urush fojialari, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilar qismati, Janubiy Koreya armiyasi safida xizmat qilgan yoshlarning taqdiri, davr muhitining ayol va erkak munosabatlariga ta’siri, o‘rta yoshdagi bo‘ydoq insonlar duchor bo‘lgan inqiroz, insonlar o‘rtasidagi “begonalashuv” va yolg‘izlik kabi masalalar o‘z aksini topdi. Shu bilan birga, muallif asarlarida nafaqat milliy, balki umumbashariy muammolar ham ko‘tarildi.

Li Munyol ijodiy merosi XX asr ikkinchi yarmi koreys adabiyotining yorqin sahifalariga aylandi, nasrda, ayniqsa, hikoya janrida davr va muhit ko‘zgusi bo‘ldi. Adibning qator asarlari xorijiy tillarga tarjima qilindi, shu sababli u xorijiy muxlislar auditoriyasiga ham ega bo‘ldi.

Ijodining ilk sahifalaridan boshlab u koreys milliy adabiyotiga yangi hayotiy kuch bag‘ishladi, kitobxoni chuqur mulohaza qilishga o‘rgatdi. Uning ijodkor sifatida boyligi harbiy mavzudagi asarlardan tortib diniy-falsafiy qarashlar, an’ana va novatorlik aks etgan, turli xil janrdagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi nasriy asarlari bilan o‘lchanadi. Li Munyol nasrning barcha turlari – hikoya, qissa, roman, drama, spektaklda shoh asarlar yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology).** O‘z davrining eng peshqadam vakillaridan biri Li Munyol iste’dodli yozuvchi, adabiyotshunos olim sifatida koreys xalqiga boy ma’naviy meros qoldirdi. Bugungi kunda Li Munyol ijodini yangi tamoyillar asosida o‘rganish ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki koreys adabiyotshunos olimi aytganlaridek: “Li Munyolning badiiy ijodi bugungi kunga qadar dolzarbligini yo‘qotmadni. Harbiy boshqaruv davridagi qiyinchiliklarga qaramay, Li Munyol qahramonlar xarakterini diktatura vaziyatidagi maishiy, hayotiy, jamiyatdagi holatlar fonida ikkinchi darajali personajlar bilan munosabatlarda ochib bera olgan nasrnavisdir” [9;26 p.].

Rus adabiyotshunos olimasi M.V.Soldatova ham Li Munyolning serqirra ijodini yuksak baholaydi. Olima “Проблемы популяризации корейской литературы в мире: к вопросу о специфичности национального культурного кода” maqolasida koreys adabiyotining jahon adabiyoti kontekstida o‘rganilishi masalalariga to‘xtaladi, faqat koreys pop-musiqa, kino va ko‘p metrajli filmlarning Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga, koreys adabiyotining, xususan, Li Munyol ijodining xorijda kam o‘rganilganligi, shu sababli adib yaratgan asarlarning Nobel mukofotiga hali-hanuz tavsiya etilmaganligini afsus bilan qayd etadi [5;3–792 c.].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** O‘zgarayotgan dunyoda hayot va san’at o‘rtasidagi qarama-qarshilikni to‘g‘ri anglagan adib mamlakatidagi real sharoitni, mafkuraviy bo‘linish qurbanlari, xaos (bo‘shliq) davri ta’lim sohasidagi bebehliklar, oila a’zolari uchun jazolangan insonlar, yozuvchi va shoirlar duch kelgan senzura, ijodkor erkinligi haqida yozdi. Yoshlarning, ayniqsa, jamiyat ziyoli qatlaming yolg‘izlanish, begonalashish sabablarini san’atning so‘z qudratida ifoda etdi. Harbiy boshqaruv davriga moslashayotgan insonning milliy qadriyatlarning unutilayotganidan chekkan aziyatlari, ichki ruhiy iztirob, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyat adib tomonidan keskin tanqid ostiga olindi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Жамилова Б. Автобиографик-дилогик қиссаларнинг бадиий-композицион, синкетик хусусиятлари. Академик Наим Фотихович Каримовнинг 90 йиллигига бағищланган “Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари” мавзуидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, “FIRDAVS-SHOH”, 2022, 143-бет.

(2). Камилова С.Э. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида хикоя жанри поэтикасининг ривожи. Филол. фанл. докт. дисс. автореф., Тошкент, 2018, 92-бет.

(3). Park Pilsun. A Study on the Violence in LeeMun-yeol’s Novels, The dissertation of the master’s degree, 2011, 129 p.

- (4). Қозоқбай Йўлдош. Ўзлик сари йўл. Ўзбекистон халқ шоири Анвар Обиджон таваллудига 70 йил. Тошкент, 152-бет.
- (5). Солдатова М.В. “Проблемы популяризации корейской литературы в мире: к вопросу о специфиности национального культурного кода”. Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. 3 (792), 2018, 166 с.
- (6). Улугбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти. Тошкент, «Адиб» нашриёти, 2012, 304-бет.
- (7). Фойибов Н. Санъат тараққиётининг бальзи масалалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат., 1970, 108-бет. Downloads. PDF. Published. 2023-11-27. Issue. Vol. 1.
- (8). 이 지 현 – 한-영-한 중역에 나타난 문화소 변역 양상 분석 – 이문열의 소설 우리들의 일그러진 영웅을 중심으로 – 아시아연구 26 (1) 2023.
- (9). 이정숙. 한국현대소설연구. – 서울: 깊은샘, 1999. – 344-p.

**Azilova Zuhra Gulmon qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti “O’zbek adabiyoti” kafedrası assistenti; e-mail: azilovazuhra@gmail.com)**

### **SHE’RIY TARJIMADA MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Farrux va Axiy haqidagi hikoyat qoraqalpoq tilidagi tarjimasi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tarjimada shakl va mazmun birligi, obrazlar, badiiy detallar, o’xshatishlar, qofiya va radiflarning qayta ifodalanishi kabi masalalari yoritilgan. Yaqin tillardan tarjima qilishdagi qulayliklar va qiyinchiliklar misollar bilan izohlangan. O’zbek tilidan qoraqalpoq tiliga bevosita tarjima qilish lozimligi ta’kidlanadi.*

*Kalit so’zlar: badiiy tarjima, qiyosiy tahlil, ekvivalent, shakl va mazmun, badiiy detal, o’xshatish.*

**Азилова Зухра Гульман кизи (ассистент кафедры узбекской литературы Нукусского государственного педагогического института; e-mail: azilovazuhra@gmail.com)**

### **ЕДИНСТВО СОДЕРЖАНИЯ И ФОРМЫ В ПЕРЕВОДЕ ПОЭЗИИ**

*Аннотация. В данной статье рассказ о Фаррухе и Ахии сопоставлен с его переводом на каракалпакский язык. В переводе освещаются вопросы сохранения единства формы и содержания, перевыражения образов, художественных деталей, сравнений, рифм и радиев. Удобства и трудности перевода с близкородственных языков объясняются примерами. Подчеркивается необходимость прямого перевода с узбекского языка на каракалпакский.*

**Ключевые слова:** художественный перевод, сопоставительный анализ, эквивалентность формы и содержание, художественная деталь, сравнение.

**Azilova Zukhra Gulman kizi (Nukus State Pedagogical Institute, assistant of the Department of Uzbek literature; e-mail: azilovazuhra@gmail.com)**

### **UNITY OF CONTENT AND FORM IN POETRY TRANSLATION**

*Annotation. In this article, the story of Farrukh and Akhiy is compared with its translation into the Karakalpak language. The translation highlights issues related to preserving the unity of form and content, re-expressing images, artistic details, similes, rhymes, and radifs. The convenience and difficulties in translating from nearby languages are explained by examples. It is noted that direct translation from Uzbek into Karakalpak is necessary.*

**Key words:** artistic translation, comparative analysis, equivalence, unity of form and content, artistic detail, simile.

**Kirish (Introduction).** Badiiy tarjima ikki xalqni bir-biriga yaqinlashtirib, mushtarak g‘oyalar paydo bo‘lishida, adabiy til va madaniyatni boyitishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada V.G. Belinskiy: “Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalqning tiliga tarjima qilish ularning o’zaro yaqinlashishlariga, bir-birlariga g‘oyalar almashishiga asos bo‘ladi, ana shundan yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi” degan fikr bildirgan edi [1;11-b.]. Shu ma’noda, bugungi kunda badiiy tarjima va tarjimashunoslik sohasiga e’tibor kuchaymoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Tarjimada shakl va mazmun birligi saqlanishi yuzasidan tarjimashunos olimlar: G’.Salomov, N.Komilov, E.Ochilov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida nazariy qarashlar bayon qilinadi. Qolaversa, o’zbek-qoraqalpoq adabiyotida ham tajimachlikda bir qator ishlar amalga oshirilgan. Lekin mavjud tadqiqotlarning hech birida “Sab’ayi sayyor” dostonining qoraqalpoq tiliga tarjimasi maxsus o’rganilmagan. Navoiyning “Sab’ayi sayyor” dostoni M.Matnazarov tamanidan qardosh qoraqalpoq tiliga she’riy yo’llda tarjima qilingan. Mazkur tarjima 1968-yilda „Qaraqalpaqstan“ nashriyotida „Jeti iqlim“ nomi bilan kitob holida bosmadan chiqarilib, kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan.